IKKI OG'A-INI

(*Ozarbayjon xalq ertaklari*)



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006

HUSAYNNING ERTAGI

ivoyat qilishlaricha, qadim zamonda Tabriz shahrida bir podshoh bor ekan. Uning Masih nomli bir polvoni bor ekan, unga bas kela oladigan, qilichining ro‘parasiga chiqadigan odam yo‘q ekan. Uning soyasida Tabriz hukmdori hech bir podshohga bosh egmas ekan.

Kunlarning birida Masih polvonning dong‘i Isfahon shahridagi Shoh Abbosning qulog‘iga borib yetibdi. Shoh Abbos o‘zining polvonlari sardori Taxtichiroqni huzuriga chorlab aytibdi:

— Qirq nafar polvonni olib, Tabrizga borasan. Avval Masihni ushlab qo‘llarini bog‘laysan, so‘ng yetti yilning boj-xirojini olib kelasan.

Taxtichiroq qirqta polvonni olib, Tabrizga ravona bo‘libdi. Selday toshib, yelday shoshib Tabrizga yetib boribdi. Bitta maktub yozib Tabrizning hukmdoriga jo‘natibdi. Hukmdor nomani o‘qib ko‘rsa shunday yozilgan ekan:

«Shuni eshit va ogoh bo‘lkim, men Shoh Abbosning polvonlari sardoriman, ismimni Taxtichiroq deyishadi. Noma senga yetishi bilan Masih polvonni qo‘li bog‘liq, yetti yilning boj-xiroji bilan menga yuborasan, Shoh Abbosning huzuriga olib ketaman».

Hukmdor maktubni o‘qib tugatgandan so‘ng Masihga qaradi. Masih aytdi:

— Hukmdor, sen o‘zing yaxshi bilasan, Masihning boshi tanida ekan, uning qo‘lini bog‘lab bo‘lmaydi. Buyruq ber, maydon hozirlansin, olishaylik, kim

yengsa onasi shod bo‘lsin, kim yengilsa onasi qora kiyib, motam tutsin.

Shu so‘zlarni nomaga bitib, Taxtichiroqqa jo‘natishdi.

So‘ng buyruq berildi, maydonga suv sepishdi, supurishdi, mash’ala tayyorlab maydon atrofiga tizib qo‘yishdi. Kechasi Masih qirqta polvon yonida maydonga keldi. Mash’alalarga o‘t yoqildi, nog‘orachilar nog‘oralarini urishardi, karnaychilar karnaylarini chalishardi. Maydonga igna tashlasang ham ko‘rinardi. Karnay ovozidan tog‘-u tosh larzaga kelardi. Tumonat odam yig‘ilgandi. Taxtichiroq ham o‘z odamlari bilan maydonga keldi. Uning boshi gumbazga mengzardi. Baqbaqalari qavat-qavat edi. Ko‘zlari chiroqday yonardi. Har ikki pahlavon odamlaridan ajralib, bir-biri tomon yurishdi.

Maydon o‘rtasida uchrashishdi. Taxtichiroq aytdi:

— Masih, kel qo‘limdan o‘p, seni shoh Abbosning yoniga olib boraman. Shoh Abbosdan iltimos qilaman, gunohingdan o‘tadi. Har doim mening xizmatimga qolasan.

Masih aytdi:

— Kurash maydoni nasihat joyi emas, agar afsuslanayotgan bo‘lsang, kel seni Tabriz hukmdori yoniga olib borayin, gunohingdan o‘tib, o‘z saroyidan senga loyiq bir joy bersin.

Ko‘p tortishishdi, lekin hech narsa o‘zgarmadi. Taxtichiroq so‘radi:

— Navbat senikimi, yoki menikimi?

Masih javob berdi:

— Dushman bo‘lsang-da, bizning tuproqda mehmonsan, navbatni senga berdim.

U uch marta Masihning boshiga qilich soldi. Masih po‘lat qalqonni qilichga tutdi, qilich sinib yerga tushdi.

Keyin Masih ham unga hamla qildi, uning ham qilichi sindi. Qalqonlarini uloqtirishdi. Bir-birining

kamariga yopishishdi. Taxtichiroq juda kuchli edi. Lekin Masih ming xil usulni bilardi, shuning uchun ham mag'lub bo'lmasdi.

Uch kun kechdan tonggacha olishishdi, lekin hech kim yenga olmadi. Har ikki tomonning roziligi bilan o'n kunga kurashni to'xtatishdi, dam ola boshladilar. Bir kun Masih otini minib Tabriz atrofidagi tog'larga sayohatga chiqdi, endi gapni Husayndan eshiting.

Husayn Hasan tuyaning o'g'li edi. Uning otasi juda ulkan odam bo'lib, bir tuyani yelkasiga ortib istagan yerga olib bora olardi. Shuning uchun uni Hasan tuya der edilar. Hasan qashshoq edi. Uning o'g'li Husayn juda ko'p ovqat yerdi. U bir boyning qo'ylarini boqardi, o'sha odam unga ovqat berardi. Uning yetti yillik chinor ildizidan yasagan bir tayog'i bor edi. Qanday temir topsa shu tayoq uchiga bog'lab qo'yardi. Tayoqqa suyanib suruvning yonida turardi. Suruv bir adirda yoyilib o'tlardi. Masih kelib, uning yonida to'xtadi. Salom berib so'radi:

— Cho'pon og'ayni, och qolsang cho'ponga bor deyishadi, yeyishga biron narsang bormi?

Masihning kiyim-kechagi, qilichi, dubulg'asi, oltin bezakli egari Husaynga juda yoqib qoldi. Quyoshga bir qaradi-da, dedi:

— Hali mening tushlik vaqtim bo'lgani yo'q. Shuning uchun ovqatimni senga beraman. Men ovqatni kechqurun uyimda yeyman. Agar tushligimni yeb tugatsang, sen bilan og'ayni bo'laman, agar tugatmasang shu cho'qmor bilan seni bir uraman.

U gapini tugatib, katta bir tovoq olib kelib, bitta to'qlini sog'di. So'ng yana bir tog'oracha qurt, sho'r pishloqni sutning ichiga to'kdi. Masihni qo'lidan otning jilovini olib, bo'shatib yubordi. Cho'qmoriga tayanib, «ye» dedi.

Masih ko'nglidan o'tkazdi: «Taxtichiroqning qo'lidan qutulib, Azroilning qo'liga tushibman-da.

Agar yuzta kallam bo‘lsa ham, shu cho‘qmorning zarbidan sog‘ chiqmaydi».

Shu payt daradan chiqqan yettita bo‘ri suruvga hujum qildi. Husayn cho‘qmorni olib bo‘rilarning ketidan quvdi, har qaysisiga bir cho‘qmor urdi, yettovini ham o‘ldirib, bir-birining ustiga taxlab qo‘ydi.

Masih ham fursatni boy bermay yerni qazib, tovoqni u yerga bo‘shatdi, so‘ng tovoqni yalab o‘tirdi. Husayn kelib, buni ko‘rib, yelkasiga qoqib aytdi:

— E, barakalla, endi qiyomatlik og‘aynimsan.

— Og‘ayni, otimni endi qanday ushlaymiz?

Husayn qushday yelib, otni tutib keltirdi. Olib kelib:

— Marhamat, mana oting, — dedi.

Masihning cho‘ntagida bir bo‘lak qand bor edi, chiqarib Husaynga berdi, Husayn aytdi:

— Bundan bizning uyda ko‘p.

Masih hayron bo‘lib so‘radi:

— Bu nima ekanini bilasanmi?

Husayn javob berdi:

— Qurt-da.

— Yo‘q, bu boshqacha qurt, bir tatib mazasini ko‘rchi.

Husayn qandni yedi, so‘ng so‘radi:

— Og‘ayni bu qurtdan yana bormi?

— Bu yerda yo‘q, uyimizda qancha so‘rasang shuncha bor.

— Men borsam to‘yguncha berasanmi?

— Beraman, qo‘ylarni egasiga topshir, keyin ketamiz.

Husayn qo‘ylarni egasiga topshirdi, keyin Tabriz tomonga yo‘l olishdi. Masih Husaynni uyiga olib kelib, unga har xil lazzatli ovqatlar berdi. Yarim kechasi Masihning odamlari yig‘ilishdi, maydonga chiqishga tayyorlanishdi. Husayn ham borishni istardi, lekin Masih rozi bo‘lmadi. Oldiga chalg‘itish uchun ancha qand qo‘ydi. Lekin Husayn yashirincha ularning keti-

dan tushdi. Kelib maydon chetidan turdi. Qarasa Masih baland ovozda aytardi:

— Mash'allar yoqilsin, kurash kuyi chalinsin.

Darhol maydon yorishib ketdi, karnay-surnaylar chalindi. Taxtichiroq ham o'z polvonlari bilan yopirilib keldi. Husayn hech narsani nazardan qochirmay kuzatib turardi. Qarasa Masih o'z sheriklaridan ajralib, maydonning o'rtasiga keldi. Boshqa to'dadan ham bir kishi ajralib keldi. Maydonning o'rtasida to'xtashdi. Notanish kishi Masihga aytdi:

— Bugun nima bilan jang qilamiz?

Masih javob berdi:

— Istagan narsang bilan.

Taxtichiroq buyruq berdi, uning to'qmog'ini olib kelishdi. Masihning odamlari ham uning yoniga to'qmog'ini olib kelib qo'ydilar.

Taxtichiroq:

— Masih, sovutingni kiy, — dedi.

Masih sovutini kiydi. Har gal to'qmoq Masihning sovutiga tekkanda go'yo bir tog' larzaga kelganday bo'lardi. Birinchi, ikkinchi zarbaga chidadi, uchinchi zarba tekkanda qo'li bo'shashib ketdi. Boshiga tekkan to'qmoq zarbidan hushidan ketib, yuztuban yiqildi.

Taxtichiroq odamlariga qarab:

— Darhol buning qo'llarini bog'lang, — dedi.

Shu payt Husayn qorong'ilikdan otilib maydonning o'rtasiga tushdi. Masihni qo'lidan ushlab orqaladi.

Taxtichiroq shuncha baqir-chaqir qildi. Hamma bir-biriga qorishib ketdi. Lekin hech kim Husaynni ko'rmadi.

Husayn Masihni uyiga olib keldi.

Masihning odamlari ham boshliqlari mag'lub bo'lganini ko'rib tarqab ketishdi. So'ng bitta-bitta uning uyiga to'planishdi. Bir necha soatdan so'ng Masih ko'zini ochdi, o'zini o'z uyida ko'rib taajjublan-

di. Kim uni Taxtichiroqday kuchli bir dushmanning qo'lidan qutqarib, o'z uyiga olib keldi ekan?

Biroz o'ylagandan so'ng aytdi:

— Bu ish Husayndan boshqa odamning qo'lidan kelmaydi.

Husaynga qarab dedi:

— Og'ayni meni o'limdan xalos etding, katta rahmat! Vaqti kelsa, men ham bu yaxshiligingni qaytaraman. Husayn kulimsirab dedi:

— Og'ayni, sen uning gurzisiga boshingni tutib turibsan. U ketma-ket urib seni yiqitdi. Hech zamonda shunaqayam jang bo'ladimi? Har qaysingiz o'z gurzingizni qo'lga oling, sen uni ur, u seni, kim-kimni yiqitsa yiqitsin. Ertaga men ularga o'rgatib qo'yaman.

Hamma kuldi.

— Og'ayni, polvonlar orasida qonun-qoida bor, o'sha qoidadan tashqariga chiqib bo'lmaydi, — dedi Masih.

Tong otdi. Masih kasal edi. Tez-tez hushidan ketib turardi. Husaynga aytdi:

— Og'ayni, sen hali mashq ko'rmagansan. U dunyodagi eng buyuk polvonlardan biri. Sen uning oldida hech narsa emassan.

U ko'p nasihat qilsa ham, Husayn quloq osmadi. Oxiri Husaynga o'z yonidan joy tashlatdi. Otining tushovini olib kelib, bir uchini Husaynning oyog'iga, ikkinchi uchini o'z oyog'iga mahkamladi, kalitni boshiga qo'yib yotdi. U uyquga ketgandan so'ng, Husayn kalitni olib, tushovini ochdi. Cho'qmorini ko'tarib yo'lga tushdi. Maydonga ham yetib keldi, kecha Masihdan eshitgan so'zlarini takrorladi:

— Mash'allar yoqilsin. Kurash kuyi chalinsin!

Qarasa hech kim uning gapiga quloq solmadi. Sekin nog'orachilarning oldiga keldi. Birining qulog'idan

ushlab shunday silkitdiki, qulog'i uzilib tushay dedi. U baqirdi:

— O'ldirma, xudo xayringni bersin! Nima desang aytganingni qilaman.

Husayn aytdi:

— Mash'allar yoqilsin, kurash kuyi chalinsin!

Mash'allar yondi, kurash kuyi har kungidagidan ham qattiqroq chalindi. Taxtichiroq o'z odamlari bilan yig'ilib keldi. Qarasa bir cho'pon maydonning qoq o'rtasida cho'qmoriga suyanib turibdi.

Taxtichiroq o'z odamlaridan ajralib u tomonga yurdi va aytdi:

— Nega kelding?

— Sen bilan urishishga.

— Sening qilich-qalqoning yo'qmi?

— Shu cho'qmor yetadi!

— Navbat senikimi yoki menikimi?

— Kecha seniki edi, bugun meniki!

U cho'qmorini boshining ustida bir necha marta aylantirgandan so'ng, shunday zarb bilan urdiki, Taxtichiroqning po'lat sovuti, kallasi maydonning har tarafiga sochilib ketdi. Taxtichiroqning odamlari qilichlarini yalang'ochlab birdan Husaynga hamla qilishdi. Husayn gurzisini har urganda uch-to'rttasini tuproqqa qorishtiraverdi. Oxiri ular qocha boshlashdi. Lekin Husaynning qo'lidan kim qochib qutula olardi? Qirqovini ham o'ldirdi, jasadlarini maydonning o'rtasiga yig'di. Mash'alachilarga, nog'orachilarga buyurdi:

— Ertalabgacha shu jasadlarni qo'riqlang. Mash'allarni so'ndirmang, nog'oralarni yanada qattiqroq chaling.

So'ng uyga kelib, yana o'z oyog'ini mahkamlab uxladi.

Tong otdi. Tabriz shahrida shodiyona boshlandi.

Hukmdordan Masihga bir noma keldi. O‘sha nomada quyidagilar yozilgandi:

«Masih! G‘alabangdan Tabrizning boshi ko‘kka yetdi. Kelib in’omingni ol!»

Masih xatni o‘qigandan so‘ng Husaynni bag‘riga bosib o‘pdi. Uni ham olib, hukmdorning oldiga ketdi. Unga boshdan oyoq shohona libos, bir hamyon oltin berildi. In’omlarni Masihning oldiga qo‘yishdi. U esa kiyim-kechaklarni olib, Husaynning oldiga qo‘ydi. Ziyofat tugagandan so‘ng Masih Husayn bilan birga uyiga keldi. Shundan so‘ng Husayn ham polvonlik libosini kiyib oldi. Har kun kiyinib dalaga chiqishardi. Masih Husaynga qilichbozlik, kamon otish, kurash sir-sinoatini o‘rgatdi. Oqibatda, Husayn tengsiz bir pahlavonga aylandi.

Shoh Abbos vaqti-vaqti bilan Tabrizga ko‘p polvonlarni jo‘natdi, lekin hammasi Husaynning qo‘lida mahv bo‘ldi. Boshliqlari o‘lgach, ba’zilari Isfahonga qochib ketar, Kurd Husayndan shoh Abbosga shikoyat qilardi.

Shoh Abbos qattiq qo‘rquvga tushdi.

Masih Husaynga urish mashqi bilan birga, yozib-chizishni ham, polvonlar orasidagi do‘stlik qoidalarini ham o‘rgatdi. So‘ng aytdi:

— Shohlarni polvonlar qo‘riqlaydi. Ular og‘a-inidek bo‘lgani uchun aslo bir-biri bilan urishmaydi. Husayn shoh Abbosning ta’zirini berish uchun Isfahonga ketishni istadi. Lekin uni ko‘tara oladigan bir ot topmadi. Cho‘pon mingan otning beli sindi. Hamma joydan so‘rab-surishtirib, Husaynga loyiq bir ot izlashdi, lekin topa olishmadi. Husayn juda ma’yus bo‘ldi.

Shunda Masih dedi:

— Og‘ayni, seni ko‘tara oladigan bir ot bor. Uning otini Qoraqoyatog‘ deyishadi. U fildan baquvvat, yeldan uchqur, tovusdan go‘zal. Lekin u Kurrning qo‘lida. Butun dunyo podshohlari unga bosh egadi, boj-xiroj

beradi. Uning joyi ma'lum emas. Bir mamlakatga kelib, go'zal joylarida chodir qurdiradi, o'lkani talon-taroj qiladi, shohidan boj-xiroj oladi, yeb-ichib, kayf-u safo qiladi, so'ng boshqa bir yurtga ketadi. Kurrning oldiga tushadigan polvon hali dunyoga kelgani yo'q.

Husayn Kurrni yengib, Qoraqoyatog'ni uning qo'lidan olishni niyat qildi. U har kuni Tabriz atrofida sayr qilardi. Hukmdor eng yaxshi otlaridan birini Husaynga bergandi. Lekin uni minmasdi, qurol-aslahasini ustiga ortib, yetaklab yurardi. Bir kuni u Tabrizdan juda uzoqlashib ketdi. Bir sohilga kelib qoldi. Qarasa boshqa bir o'lkaga yetay deb qolibdi. Husayn otini itarib kemaga chiqardi, o'zi ham kemaga chiqib oldi. Hech kim qo'rqqanidan unga bir so'z aytmadi. Kema yo'lga tushdi. Kemada qirqta savdogar bor edi, boshqa o'lkalarga mol olib borishardi. Kema biroz yo'l yurdi, Husayn juda ochqagan edi. Kemaning oshxonasidan ikkita savdogarga bir tovoq, uning yolg'iz o'ziga esa bir tovoq ovqat olib kelishdi. Hali hech kim ovqat yeyish tadorigini ko'rib ulgurmasdan u tovoqni bo'shatib, itarib qo'ydi. Savdogarlardan biri oshpazga yana bir tovoq ovqat keltirishni ishora qildi. U ham bo'shadi. Uchinchi tovoqni oshpaz o'zi olib keldi. Lekin Husaynga qorniga hech narsa tushmayotganday tuyuldi. Hammasi tishining kovagida qoldi. Sekin qorniga urib aytdi:

— Egang tirik bo'lsa, seni to'ydiradi.

Tunni bir balo qilib o'tkazdi.

Nonushtaga yana unga uch tovoq ovqat berishdi. Dasturxon yig'ilgandan so'ng u oshxonaga o'tdi, u yerdagi qozonlarni tekshirib, oshpazga aytdi:

— Sen osh pishirganda necha kunligini birdan pishirasan?

— Har kuni uch marta pishiraman.

— Nega bir oyligi, bir haftalikni birdan pishirmaysan?

Oshpaz javob berdi:

— Men buni eplay olmayman.

— Unday bo‘lsa, kel, men senga o‘rgataman. Guruch, yog‘ bor, men o‘n kunlik osh pishiraman.

Oshpaz unga ishonib-ishonmasdan, qo‘rquv aralash guruch qoplarini va yog‘ idishlarini ko‘rsatdi. Husayn bir katta qozonga besh-olti halta guruch soldi. Qozonning qolgan qismini suv bilan to‘ldirdi.

— Yog‘, tuz olib kel. Men o‘zim necha yil shoh oshpazi bo‘lganman.

Yog‘ni, tuzni ham qozonga soldi. Qozonning og‘zini berkitib, tagiga o‘t qaladi. Guruch qaynab bir-biriga yopishdi. Qilichini sug‘urib guruchni g‘ishtday kesdi, laganlarga solib, savdogarlarga jo‘natdi. Har zamonda tuzini ko‘raman, deb g‘ishtday keladigan bir bo‘lakni og‘ziga otardi. Savdogarlar yemadi, hammasi orqaga qaytdi. Husayn hammasini yalab-yulqab yeb qo‘ydi. So‘ng chanqadi. Savdogarlar unga ichimlik suvi bermay, dengizning sho‘r suvidan berishdi.

Husayn suvdan ichib yotdi. Shunday qattiq betob bo‘ldiki, hushidan ketdi. Kemani sohilga yaqinlashtirib uni olib chiqishdi, aslahalarini, otini yoniga tashlab ketishdi.

Bir to‘da qaroqchi kelib, uning liboslarini, aslahalarini va otini olib ketdi.

Endi gapni qashshoq bir baliqchidan eshiting.

Baliqchi dengiz qirg‘og‘ida baliq ovlardi. Qarasa yosh bir yigit yiqilib yotibdi. O‘ziyam bir minoraday. Avval o‘lik deb o‘ylab ko‘p afsuslandi. So‘ng diqqat bilan qarasa, joni bor ekan. Bir nechta baliqchini chaqirib, uni aravaga ortishdi. Uyiga olib keldi. Xotiniga aytdi:

— Xotin shu yigit xasta ekan, rahmim keldi, olib keldim. Parvarish qilaylik-chi, o‘lsa u dunyomiz, qolsa bu dunyomiz bo‘ladi.

Bir necha kundan so‘ng Husayn hushiga keldi,

uyg‘ondi. Baliqchining uyidagi oziqani uch kunda yeb tugatdi. Keyin, o‘zi ham uy egasining yeyishiga hech vaqosi qolmaganini tushundi.

— Mening qurol-aslahalarimni olib keling, men bir chiqay-chi, — dedi:

— O‘g‘lim, seni dengiz sohilida o‘likday faqat ichki kiyimda topdim, rahmim kelib, bu yerga olib keldim. Bizda sening hech narsang yo‘q.

Husayn o‘ylab kemadagi voqealarni esladi. Savdogarlar uni tunab, o‘zini sohilga tashlagan, deb o‘yladi.

— Ota, omon qolsam yaxshiligingizni qaytaraman. Endi egnimga kiyishga biror narsangiz bormi?

Baliqchi bor-yo‘g‘ini olib borib bozorga sotdi. O‘nta qop olib keldi, unga bir chopon tikdirdi. Husayn kiyinib, bozorga chiqdi. Hammayoqni aylandi. Bozor ahli unga kular, ba’zilari tosh, g‘isht otardi. Ketma-ket har xil bema’ni so‘zlar aytardilar.

Husayn oshpaz do‘koni yonidan o‘tayotganda ovqat hidi uning dimog‘ini qitiqladi. Tizzalari qaltirab ketdi, qadam tashlay olmay qoldi. Ochlikdan ko‘z oldi qorong‘ilashdi.

Oshxona egasi uni tomosha qilayotganlar orasida edi. So‘radi:

— Nega yura olmayapsan?

Husayn:

— Ochman, — dedi.

Oshxona egasi unga bir siniq idishda ovqat keltirdi. Qolgan ovqatni shu idishga to‘kishardi. Uni ko‘rsatib:

— Ye, — dedi.

Husayn ozgina yedi, ko‘ziga nur keldi.

— Sen menga ovqat berding, evaziga bir ish buyur, bajaray, qarzdor bo‘lib qolmay, — dedi.

Oshxona egasi jinni deb o‘ylagan odamdan bunday so‘zni eshitib juda hayron bo‘ldi, aytdi:

— Bizning oshxonada uchta katta mesh bor, har

qaysisiga uch yuz chelak suv ketadi. Ularni shahar chekkasidan oqayotgan soyning suviga to'ldirish kerak. Ularni bir ishchi o'ttiz kunda, yoki o'ttiz ishchi bir kunda to'ldira oladi. O'ttiz so'm ishchilarning haqqi, — meshlarni ko'rsatdi, o'ttiz so'm pul berdi. — Ishchi yolla, bularni to'ldirishsin, — deb ketdi. Husayn bo'sh meshlarni bitta-bitta olib, soyga ketdi, suv bilan to'ldirdi, yana joyiga olib borib qo'ydi. Pulni olib borib oshxona egasining o'ziga berdi.

Oshpaz so'radi:

— Meshlarni nega to'ldirmading?

— To'ldirdim.

U kelib meshlarga qaradi, qarasa meshlar to'la, aytdi:

— Bittasini bo'shatib, yana to'ldirib ko'rsatasanmi? Qani qanday to'ldirar ekansan?

Husayn meshning bittasini olib, suvini bo'shatdi. Olib borib, soydan suv olib kelib joyiga qo'ydi.

Oshxona egasi o'z-o'ziga aytdi:

— Bu shunday kuch egasi ekan, o'zi ham aql sohibi bo'lsa kerak. Bu odamda ko'p xosiyat bor.

O'sha kundan boshlab unga yaxshi-yaxshi ovqatlar bera boshladi. U oshxonada eng og'ir ishlarni bajarardi. Uni esa shogird Husayn deyishardi.

Husayn hamma narsaga e'tibor berardi. Bir kun qarasa, qirqta polvon har kun uch marta kelib yebichib, pul bermay ketishardi. Husayn oshxona egasidan so'radi:

— Bular kim? Nega yegan ovqatlarining haqqini to'lamay ketishadi.

Oshpaz javob berdi:

— Ey, Husayn, nimasini aytasan? Ular Kurrning polvonlari. Butun dunyo ularning dastidan qon yig'laydi. Bizning podshohdan ko'p boj-xiroj so'radi, u bera olmadi! Ish oxiri janjalga borib taqaldi. Shohning yetti o'g'li bor edi. Hammasi ko'zga

ko‘ringan polvon edi. Oltitasini maydonda o‘ldirdi. Shoh qirq kun muhlat oldi. Ertaga qirq kun tugaydi, uni ham o‘ldirgandan so‘ng shaharni tumtaraqay qiladi. Sen bo‘lsang yegan ovqat haqini aytasan.

— Ular sendan qancha qarz? Hisobini ber, — dedi Husayn.

Oshxona egasi hisob daftarini Husaynga berdi. Husayn kutdi, ular kechki ovqatni yeb ketayotganlarida, eshikni to‘sdi, hisob daftarini ularga ko‘rsatib, aytdi:

— Shuncha qarzingiz bor, to‘lab, so‘ng ketinglar.

Hamma oshxonadan chiqib, uzoqdan tomosha qilardi. Polvonlar Husaynni mensimay ketmoqchi bo‘lishdi. Husayn bittasining kamaridan ushlab ko‘tardi, boshi ustida aylantirib, ikkinchisining boshiga urdi. Ikkalasining ham joni chiqdi. Qolganlari cho‘ntaklaridagi pullarining hammasini Husaynning oldiga to‘kishdi. O‘lganlarni ham olib ketishdi. Oshxona egasi aytdi:

— Husayn, sen nima qilding? Ular ertasiga shohning qolgan o‘g‘lini ham o‘ldirgandan so‘ng birinchi bo‘lib bu yerga hujum qilishadi. Do‘konga o‘t qo‘yishadi, bizni ham tiriklay yoqishadi.

Husayn kulib aytdi:

— Ertaga ular jonlarini mening qo‘limdan salomat qutqara olsa, bu yerga kelishadi. Hech qo‘rqmasdan pullarni olaver.

Ertasiga tong otdi. Do‘konlar, bozor ham bekildi. Hamma maydon tarafga ketdi. Hamma maydonda edi, igna otsang yerga tushmasdi. Husayn yana yetti yillik chinor daraxtini ildizidan chiqarib butoqlarni tozaladi, yelkasiga ortdi, maydonga keldi, qarasa shohning kichik o‘g‘li o‘n sakkiz yoshlardagi yosh yigit ekan. Husayn unga aytdi: «Sen orqangga qayt, bugun maydon meniki». Shahzoda uni jinni deb o‘ylab, gapiga quloq solmadi.

Husayn shahzodaning qamchisini qo‘lidan olib,

qaysisiga uch yuz chelak suv ketadi. Ularni shahar chekkasidan oqayotgan soyning suviga to'ldirish kerak. Ularni bir ishchi o'ttiz kunda, yoki o'ttiz ishchi bir kunda to'ldira oladi. O'ttiz so'm ishchilarning haqqi, — meshlarni ko'rsatdi, o'ttiz so'm pul berdi. — Ishchi yolla, bularni to'ldirishsin, — deb ketdi. Husayn bo'sh meshlarni bitta-bitta olib, soyga ketdi, suv bilan to'ldirdi, yana joyiga olib borib qo'ydi. Pulni olib borib oshxona egasining o'ziga berdi.

Oshpaz so'radi:

— Meshlarni nega to'ldirmading?

— To'ldirdim.

U kelib meshlarga qaradi, qarasa meshlar to'la, aytdi:

— Bittasini bo'shatib, yana to'ldirib ko'rsatasanmi? Qani qanday to'ldirar ekansan?

Husayn meshning bittasini olib, suvini bo'shatdi. Olib borib, soydan suv olib kelib joyiga qo'ydi.

Oshxona egasi o'z-o'ziga aytdi:

— Bu shunday kuch egasi ekan, o'zi ham aql sohibi bo'lsa kerak. Bu odamda ko'p xosiyat bor.

O'sha kundan boshlab unga yaxshi-yaxshi ovqatlar bera boshladi. U oshxonada eng og'ir ishlarni bajarardi. Uni esa shogird Husayn deyishardi.

Husayn hamma narsaga e'tibor berardi. Bir kun qarasa, qirqta polvon har kun uch marta kelib yebichib, pul bermay ketishardi. Husayn oshxona egasidan so'radi:

— Bular kim? Nega yegan ovqatlarining haqqini to'lamay ketishadi.

Oshpaz javob berdi:

— Ey, Husayn, nimasini aytasan? Ular Kurrning polvonlari. Butun dunyo ularning dastidan qon yig'laydi. Bizning podshohdan ko'p boj-xiroj so'radi, u bera olmadi! Ish oxiri janjalga borib taqaldi. Shohning yetti o'g'li bor edi. Hammasi ko'zga

ko‘ringan polvon edi. Oltitasini maydonda o‘ldirdi. Shoh qirq kun muhlat oldi. Ertaga qirq kun tugaydi, uni ham o‘ldirgandan so‘ng shaharni tumtaraqay qiladi. Sen bo‘lsang yegan ovqat haqini aytasan.

— Ular sendan qancha qarz? Hisobini ber, — dedi Husayn.

Oshxona egasi hisob daftarini Husaynga berdi. Husayn kutdi, ular kechki ovqatni yeb ketayotganlarida, eshikni to‘sdi, hisob daftarini ularga ko‘rsatib, aytdi:

— Shuncha qarzingiz bor, to‘lab, so‘ng ketinglar.

Hamma oshxonadan chiqib, uzoqdan tomosha qilardi. Polvonlar Husaynni mensimay ketmoqchi bo‘lishdi. Husayn bittasining kamaridan ushlab ko‘tardi, boshi ustida aylantirib, ikkinchisining boshiga urdi. Ikkalasining ham joni chiqdi. Qolganlari cho‘ntaklaridagi pullarining hammasini Husaynning oldiga to‘kishdi. O‘lganlarni ham olib ketishdi. Oshxona egasi aytdi:

— Husayn, sen nima qilding? Ular ertasiga shohning qolgan o‘g‘lini ham o‘ldirgandan so‘ng birinchi bo‘lib bu yerga hujum qilishadi. Do‘konga o‘t qo‘yishadi, bizni ham tiriklay yoqishadi.

Husayn kulib aytdi:

— Ertaga ular jonlarini mening qo‘limdan salomat qutqara olsa, bu yerga kelishadi. Hech qo‘rqmasdan pullarni olaver.

Ertasiga tong otdi. Do‘konlar, bozor ham bekildi. Hamma maydon tarafga ketdi. Hamma maydonda edi, igna otsang yerga tushmasdi. Husayn yana yetti yillik chinor daraxtini ildizidan chiqarib butoqlarni tozaladi, yelkasiga ortdi, maydonga keldi, qarasa shohning kichik o‘g‘li o‘n sakkiz yoshlardagi yosh yigit ekan. Husayn unga aytdi: «Sen orqangga qayt, bugun maydon meniki». Shahzoda uni jinni deb o‘ylab, gapiga quloq solmadi.

Husayn shahzodaning qamchisini qo‘lidan olib,

o‘ziga va otiga qamchi urib, maydondan chiqarib yubordi.

Shoh taxtida o‘tirib ko‘z yosh to‘kardi. Qarasa o‘g‘li qaytib kelyapti, unga aytdi:

— O‘g‘lim, joningni ayab, maydondan qochding-mi? Dushman oldida sharmandalarcha qochgandan ko‘ra, maydonda sharaf bilan o‘lganing yaxshi edi.

Shahzoda qamchi izini otasiga ko‘rsatib aytdi:

— Ota, men o‘lishdan qo‘rqib dushmandan qochgan odamlardan emasman. Bir jinni meni urib-so‘kib maydondan haydadi, bugun men kurashaman dedi.

Shoh ham sabr qildi.

Husayn shahzodani maydondan quvgandan keyin yana maydonga qaytib keldi. So‘ng e’lon qildi:

— Kimda jur’at bo‘lsa, maydonga chiqsin.

Kurrning polvonlari bir-biriga qarab, oshxonadagi voqeani eslashdi. Husayn yana gapirdi. Ularning boshliqlari o‘z odamlariga aytdi:

— Men u bilan jang qilaman, kuchli bo‘lsa ham aslahasi yo‘q. Shubhasiz urush qoidalarini ham bilmaydi, agar aldab mag‘lub qilsam, orqa-oldiga qaramay qochadi.

U o‘z sheriklaridan ajralib Husaynning oldiga keldi va so‘radi:

— Navbat senikimi yoki menikimi?

— Navbat meniki bo‘lsa, senga narigi dunyoda navbat tegadi.

— Axir, sening qalqoning yo‘q-ku, boshingga nima tutasan?

Husayn chinorni boshiga tutib aytdi:

— Mening qilichim ham, qalqonim ham shu. Sen oldin urib ko‘r-chi.

U fursatni g‘animat bildi, tez qilichini sug‘urdi, kuchini qo‘liga yig‘ib, Husaynning boshi ustidagi chinor daraxtiga urdi. U qilich daraxtni kesadi deb o‘yladi.

Lekin Husaynning ikki ko‘zi uning qilichida edi. U qilich solgan zamon chaqqonlik bilan yon tomonga otildi, qilich Husaynning daraxtiga sal tegib yerga sanchildi.

U ikkinchi zarbani urmoqchi bo‘ldi. Husayn aytdi:

— Agar mening ham senikiday aslaham bo‘lsa, uch zarba urardim. Mening bitta qurolim bor, bir zarba uraman. Qani, men bir uray-chi. Agar sog‘ qolsang, yana sen urasan.

Polvon ajali yaqinligini sezdi. Otining boshini burib qochsa ham Husayn unga omonlik bermaydi. Ortidan yetib yoqasidan oladi. Hamma uni qo‘rqoq deb aytadi. U jonini hovuchlab, qalqonni boshiga kiydi. Husayn chinor cho‘qmorini uch marta boshi ustida aylantirib, qalqonning ustidan shunday urdiki, polvonning o‘zi ham, oti ham tuproqqa qorishdi. Ishning pachavaligini ko‘rgan sheriklari boshliqlarining o‘chini olish uchun Husaynga hujum qilishdi. Lekin Husayn chinorni har aylantirganda besh-oltitasi tuproqqa qorishib qolaverdi. Hammasini qirib, maydonda bir-birining ustiga yig‘di. Oxir cho‘qmorini ham jasadlar ustiga irg‘itib, qaytib oshxonaga keldi. Shahar ahli uni tomosha qilib zavqlanardi. Oshpazlar uning oldida qo‘l qovushtirib turishardi. Shohga xabar berishdi. Shoh oyoqyalang, boshyalang oshxonaga keldi. U Husaynni bag‘riga bosib o‘pdi.

Uni saroyga olib ketdi.

— O‘g‘lim sen katta yaxshilik qilding, so‘ra so‘raganingni, — dedi shoh.

— Qiblayi olam, avvalambor sizga sog‘liq tilayman. So‘raganingiz uchun aytay, birinchi xohishim shuki, mening tirik qolishimga sabab bo‘lgan falon baliqchiga hurmat ko‘rsatasiz, ikkinchisi, menga loyiq bir juft polvonlar sarposi, aslaha topib bering. Uchinchisi Kurrning polvonlari yerini menga in’om qilib bersangiz.

307922 17

Shoh baliqchini o‘ziga vazir qilib tayinladi.

— Sen bugun o‘ldirganlarning hammasi Kurrning polvonlari edi. Shuning uchun sen uni izlama. U bugungi voqeani eshitib, o‘zi bu yerga keladi. — So‘ng xazinadorni chaqirib aytdi:

— Husaynga aslaha omborlarini ko‘rsat, o‘ziga yoqqan kiyimlarni, qurollarni olsin.

Husayn aslaha, kiyim omborlarini kezdi, na egniga loyiq kiyim, na qurol topdi.

Husayn bilan shoh ma’yus qolishdi. Chunki Kurrning oldiga Husayn bir polvonday chiqmoqchi edi. Libossiz, otsiz, aslahasiz polvon bo‘ladimi? Kurrday jahon polvonning oldiga shunday chiqib bo‘ladimi?

Shoh butun o‘lkaga kimki Husaynning egniga loyiq libos, unga yoqadigan qurol topsa, ularning og‘irligicha oltin oladi deb xabar tarqatdi.

Endi gapni Husaynning otini, libosini, aslahalarini o‘g‘irlagan o‘g‘rilardan eshiting.

Ular qarasa, qalqon po‘latdan yasalgan bir gumbazday, uni ko‘tarishga hech kimning qurbi yetmaydi. Kiyim-kechagida ham xaridor chiqmadi, bir tomonga uloqtirishdi. Shu asnoda shohning xabari o‘g‘rilarga borib yetdi, asbob-anjomni yig‘ib, shoh huzuriga olib kelishdi. Husayn kiyimlarini, aslahasini tanidi, juda xursand bo‘ldi.

— Bularni qayerdan olgansiz? — deb so‘radi.

Sohilda o‘lib yotgan bir odamning yonidan olganlarini aytishdi.

Kiyim-kechak, qurol og‘irligida xazinadan tilla olib o‘g‘rilarga berishdi. Husayn har kun yeb-ichib dam ola tursin, endi gapni Kurrdan eshiting.

Shunday qilib, polvonlarining qirilganini bildi, umrida birinchi marta oh chekdi. Ularning xunini olmaguncha tinchimasligini aytib ont ichdi. Odamlarini Husayn qirgan manzilga yetib keldi. Husayn qorovul qo‘yib, ularning chodirlarini, bor davlatini qanday

bo‘lsa shundayligicha saqlattirardi. Kurr hamma joyni aylanib, hamma narsani o‘z joyida ko‘rdi. U dushmanining katta bir polvonligini tushundi.

Shohga noma yozib, ertasiga Husaynni maydonga jo‘natishni talab qildi. Maktubiga shohdan Husayn sening yo‘lingga muntazir degan javob oldi. Ertaga maydonga chiqar ekan degan xabar keldi. Polvonlar kiyinib, sahardan maydonga yetib kelishdi. Kurr Qoraqoyatog‘ni minib keldi, lekin Husayn piyoda edi. Kurr so‘radi:

— Sening nega oting yo‘q?

Husayn aytdi:

— Kerak emas, ikkimizdan birimiz o‘lamiz, tirik qolgan Qoraqoyatog‘ni minadi: — Men sendan qochmayman, sening ham qochish niyating yo‘q bo‘lsa, tush, piyoda urushamiz.

— Men tugul, otimni ham tanirkansan, lekin men seni tanimadim. Kimligingni aytasanmi?

— Men tabrizli Husaynman.

— Taxtichiroqni o‘ldirgan Husaynmi?

— Bo‘lsa bordir.

— Navbat kimniki?

— Men hamisha fursatni dushmanga beraman, — deb qalqonni boshiga tutdi. Kurr uch marta bor kuchi bilan uning qalqoniga qilich soldi. So‘ng o‘z qalqonini boshiga tutdi. Qilichlashishning natijasi bo‘lmadi. Gurzi, nayza otdilar, yana bir-biriga kuchi yetmadi. Kechgacha bir-birini sudrashdi, hech natija chiqmadi. Kurash tugashi haqida dovul chalindi. Har kim o‘z manziliga qaytdi.

O‘ttiz to‘qqiz kun shu qoida bilan jang qildilar. Qirqinchi kun maydonga kelganda Husayn aytdi:

— Mash’allar tayyorlansin, kechasi maydon yorug‘ bo‘lsin. Bu safar qaytish yo‘q.

Istar-istamas Kurr ham rozi bo‘ldi. Kun bo‘yi, kechasi bilan olishishdi. Oxiri Husayn fursat topib,

uning siynasiga kalla qo'ydi. Bir zarba urib, uni ko'tardi, boshi ustida uch marta aylantirib yerga shunday urdiki, maydon larzaga keldi. Xanjarini chiqarib, boshini sapchaday uzdi. Do'st, dushman hamma unga ofarin aytdi. Kallani shohning oyoqlari ostiga otdi.

Shoh Kurrning oltin suvi yugurtirilgan chodirlarini, bor davlatini, Qoraqoyatog'ni Husaynga berdi. Husayn davlatining hammasini shohning qullari bilan Tabrizga jo'natdi. O'zi Qoraqoyatog'ni minib, yolg'iz Isfahonga yo'lga tushdi.

Endi bir og'iz gapni isfahonli shoh Abbosdan eshiting.

Shoh Abbos Husaynning yo'q bo'lganini eshitib juda quvondi. Tabriz ustiga yana qo'shin jo'natish fikriga tushdi. Lekin Taxtichiroqning yaqin do'sti bo'lgan Kurrga in'omlar jo'natib, uni Isfahonga olib kelib, o'ziga bosh polvon qilib tayinlagandan so'ng Tabrizga qo'shin jo'natmoqchi bo'ldi. Shu payt Husayn nomli bir kishi Kurrni o'ldirib, bor davlatiga ega chiqibdi, degan xabarni eshitdi. Husayn Isfahonga kelsa kerak deb o'yladi. Vazirlarini yig'ib, ularga maslahat soldi:

— Husayn Kurrni ham o'ldiripti. U, shubhasiz, Isfahonga kelarmish. Siz nima maslahat berasiz?

Ko'p maslahatdan so'ng Husaynning Kurrni o'ldirgani haqidagi xabar Tabrizga yetmasdanoq, Tabriz hukmdori bilan Masihni Isfahonga chaqirib, ular bilan do'st bo'lish qaroriga kelishdi. Shunday qilishdi. Masih Tabrizning hukmdori bilan birga Tabrizdan Isfahonga qarab yo'lga tushdi. Shu payt Husayn jo'natgan mol-davlat Tabrizga kelib yetdi.

Shunday qilib shoh Abbos ularga ko'p hurmat ko'rsatdi. Ular Husayndan behabar ekanliklarini bildirishdi. Shoh Abbos ularga hech narsa demadi, lekin kundan kunga izzat hurmatini ziyoda qilaverdi.

Endi gapni Husayndan eshiting. U Qoraqoyatog'ni

minib yo‘lga tushdi, daralardan selday, tepalardan yelday o‘tdi. Kunlarning birida Isfahonga kelib yetdi. Bir karvonsaroyga tushdi, karvonsaroy egasini yoniga chaqirdi. Qo‘lini cho‘ntakka solib ikkala cho‘ntagini karvonsaroy egasining etagiga bo‘shatdi. Etagi oltinga to‘ldi, yolvora boshladi:

— Ey polvon, o‘zim o‘rgilay, men karvonsaroyni sota olmayman.

— Menga karvonsaroy kerak emas. Pulni otimga yem olasan deb beryapman. Otimni yaxshi boq.

— Sendan aylanay, otinga chodir qurib, oldiga mayiz solaman.

— Bor, bora qol!

Shunday qilib kech tushdi, Husayn shaharga chiqdi, hamma joyni aylandi. Yarim kechasi qarasa bir joydan qo‘shiq-kuy ovozi kelyapti. Husayn eshikka suyanib tirqishdan qarasa, bu yerda katta-katta odamlar yonboshlab o‘tiribdi. Faqat to‘rda bir kishi oltin taxtda o‘tirardi, boshdan oyoq po‘lat sovut. Husayn ichkari kirdi, salom-aliksiz unga yaqinlashib aytdi:

— Og‘ayni, hamma ikkita-ikkita o‘tiripti, faqat sen bir o‘zing o‘tiribsan, biroz tur, men o‘tirib turay.

U javob berdi:

— Shu shart bilanki, turgan odam o‘tirganni uch musht uradi.

Kurd Husayn aytdi:

— Roziman.

U odam turdi. Husayn uning o‘rniga o‘tirib aytdi:

— Qayerimdan musht urasan?

Odam aytdi:

— Hiqildog‘ingdan.

Husayn yoqasini yuqori ko‘tarib «ur» dedi. U Husaynning hiqildog‘iga bir musht urdi. Husayn aytdi:

— Ikkinchisini chap tomondan ur. Uchinchi mushtni ham urdi. Husayn aytdi:

— Og‘ayni, men endi o‘tira olmayman. Mushtlarimni urib, ketaman.

— Endi Husayn turdi, o‘sha odam o‘tirdi.

Husayn so‘radi:

— Qayeringdan uray.

U hiqildog‘ining o‘ng tomonini ko‘rsatdi. Husayn shunday urdiki, mushti hiqildog‘ining chap tomondan teshib chiqdi. Uning hiqildog‘i Husaynning bilagiga o‘ralib qoldi. Uni eshikdan tashqariga uloqtirdi. Yana oltin kursiga joylashdi. Qo‘lini qilichining dastasiga qo‘ydi. Majlisni ko‘zdan kechirdi. Hamma qo‘rquvdan qotib qolgandi. Hech qaysisining tili kalimaga kelmasdi. O‘rtada bir ayol qo‘shiq aytib, raqs tushardi. To‘xtashni buyurdi. Husayn uni yoniga chaqirib aytdi: — Bu kecha hamma menga mehmon, sen bo‘lsa hamyoningni olib kel.

Ayol cho‘ntagini tutdi, u oltinga to‘ldi.

— Bor, chal, qo‘shiq ayt, — dedi Husayn.

Ertalabga yaqin Husayn turib, karvonsaroyga ketdi. Oldin Qoraqoyatog‘ni yo‘qladi. Haqiqatan ham unga chodir yasab, oldiga mayiz solishgandi.

Husayn karvonsaroyga ketgandan so‘ng, majlisdagilardan bir nechtasi shoh Abbosning yoniga borib, bosh polvonning qanday o‘lgani haqida xabar berishdi. Shoh Abbos noma’lum bu polvon Husayn ekanini bildi. U Tabriz hukmdori va Masih bilan nonushta qilarkan, aytdi:

— Husayn kelibdi. Hozir falon karvonsaroyda ekan, borib uni saroyga olib kel, — dedi.

Masih karvonsaroyga bordi. Masih bilan Husayn quchoq ochib ko‘rishishdi, so‘ng saroyga kelishdi.

Bir necha kun Shoh Abbosning yonida qolganlaridan so‘ng Tabrizga kelishdi. Ular davr-u davron surib maqsadiga yetdi. Siz ham murod-u maqsadingizga yeting.

SHAHZODA VA MALIKA XOTUN

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadimda bir podshoh bo‘lgan ekan. Uning xotini, Jamol ismli bir o‘g‘li bor ekan. Kunlardan bir kuni podshohning xotini qattiq betob bo‘lib olamdan o‘tibdi. Jamol sakkiz yoshda onadan yetim qolibdi. Malikani dafn etishdi, qora kiyishdi. Qirq kun, qirq kecha aza tutishdi. Shunday qilib oradan ancha vaqt kechdi, asta-asta o‘lganni unutishdi.

Bir kun vazir-u vuzaro, saroy ahli jam bo‘lishib, podshoh huzuriga kelishdi va maslahat solishdi.

— Shoh hazratlari, sizga xotinsiz yurish yarashmaydi. Hali o‘g‘lingiz yosh. Nasl-nasabini surishtirib, birortasiga uylaning. Ham sizga, ham bolangizga suyanchiq bo‘ladi.

Podshoh o‘lgan xotinini juda yaxshi ko‘rardi, shu bois uylanmaslikka qaror qilgandi. Ammo vazir-u vuzaro, saroy a’yonlarining gapini ikki qilmadi. Vazirning bir qizi bor edi. Yetti kun, yetti kecha to‘y qilib, unga uylandi.

Oradan yillar o‘tib, podshohning o‘g‘li bo‘yi yetib, o‘n besh yoshga to‘ldi. Shunday yigit bo‘ldiki, qarab ko‘z to‘ymasdi. Ko‘chaga chiqqanda xotin-xalajning og‘zi ochilib qolardi. Podshohning xotini o‘gay o‘g‘liga oshiq bo‘lib qoldi. Chiday olmadi. Bir kun Jamolning o‘ziga sirini ochdi:

— Men seni ko‘rmasam turolmayman. Hech chiday olmayman, men bilan bir yostiqqa bosh qo‘yasan.

Jamolning eti jimirlab ketdi, do‘ppisi boshidan yerga tushdi:

— Siz nimalar deyapsiz? Axir, onamsiz-ku! Ona ham o‘z o‘g‘liga oshiq bo‘ladimi? Borib tavba qilib, to‘g‘ri yo‘lga qayting. Sizni shayton yo‘ldan uripti.

— O‘lsam ham qarorimdan qaytmayman.

Jamol ko‘p pand-nasihat qildi, o‘gay ona eshitmadi. Oxiri o‘g‘il chiqib ketdi. O‘gay ona g‘azablandi. O‘z-o‘ziga aytdi: «Yaxshi, yo men, yo sen qolasan! Yo sen bilan bir yostiqqa bosh qo‘yaman, yo seni bu dunyodan yo‘q qilaman».

Bir necha kun o‘tdi. Xotin yana Jamolni yolg‘iz uchratib aytdi:

— Endi qanday fikrdasan, taklifimga ko‘ndingmi?

— Aqlingizni yig‘ing, siz mening onamsiz. Bunday so‘zni bir aytdingiz, boshqa gapirmang. Otam eshitsa yomon bo‘ladi.

— Men ona-ponani bilmayman.

Jamol qattiq g‘azablanib, onasiga og‘ir so‘zlar aytdi. Xotin Jamolning bu gaplaridan keyin o‘z-o‘ziga aytdi: «Seni bu dunyodan yo‘q qilaman, bir tomoshangni ko‘raman». Kech tushdi. Podshoh ishlarini tugatib, haramga keldi. Xotini bilan ko‘rishdi, suhbat boshlandi. Xotin eriga aytdi:

— O‘g‘lingiz Jamol juda ko‘p ovqat yeydi-da.

— E xotin, nima qipti, istagancha yesin, Ollohning karamiga shukr-ki, dunyoning bor davlati bizda. Nimamizga yetmaydi?

— Yo‘g‘-e, juda ko‘p yeydi, juda ko‘p.

— Ey xotin, qo‘y, istaganicha yesin.

— Nega tushunmayapsiz, shunday ko‘p yeydi, niyati yomon.

— Tushunmadim. Nima deganing bu?

— Qayerdan bilaman, niyati yomon-da, yomon. Niyati yomon degani behosiyat bo‘ladi.

— Ey xotin, senda bir gap bor. Gapning po‘stkallasini aytgin, nima demoqchisan. Men bilan gap talashmasdan mundoq tushuntir, nega niyati yomon, bexosiyat bo‘larkan.

— Niyati yomon, bexosiyat bola ota-onasining boshini yeydi. Onasining boshini yegan. Endi esa sizning boshingizni yeydi, chora ko'ring.

Podshoh gapga kiradigan, kim nima desa ishonadigan odam edi. Shuning uchun bu gapdan qo'rquvga tushib aytdi:

— Qanday qilib bu boladan qutulsam ekan?

— O'g'lingizni chaqiring, hoziroq kallasini tanasidan judo qildiring, xatar sizdan uzoq bo'lsin.

Shu ahmoqona gapga podshoh rozi bo'ldi, taxtga chiqdi, o'g'lim Jamolning kallasini olinglar, deb amr qildi. Jamolni dor tagiga olib kelishdi.

Podshohning bir aqlli, adolatli vaziri bor edi. Vazir shoh huzurida ikki bukilib dedi:

— Shoh, ko'zingning oq-u qorasi bo'lgan yolg'iz o'g'lingni nima sababdan o'ldiryapsan, bu hech kimga ma'lum emas. Agar uni sen nohaqdan o'ldirsang, so'ng pushaymon yeysan, el senga la'nat deydi. Sen uni men uchun gunohidan o't, boshqa bir o'lkaga surgun qil. Ko'zdan nari, ko'ngildan yiroq deyishadi. O'ldirsang yurak dog'i qoladi. Surgun ham o'limday bir gap.

Podshoh vazirning gapi bilan o'g'lining qonidan kechdi, uni surgun qilishga buyruq berdi. Jamolni uzoq o'rmonga olib borib tashlashdi.

Jamol yurib-yurib bir savdogarning uyidan chiqdi:

— Men juda ochman, xudo yo'liga menga bir burda non beringlar, — dedi Jamol.

Savdogarning bir rahmdil xotini bor edi. Jamolga qarasa bir parcha oyday go'zal yigit. U xotinga yoqib qoldi.

Eriga aytdi:

— So'rangchi, kim ekan? Qayerdan kelyapti ekan?

Savdogar so'radi:

— O'g'lim kimsan, qayerdan kelyapsan?

Yigit javob berdi:

— Yetimman, hech kimim yo'q. Meni xizmatkorlikka olasizmi?